

JAMIYATDA OILANING O'RNINI

Abdullayeva Barno Boqijon qizi

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Namangan viloyat Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar boshqarmasi huzuridagi

To'raqo'rg'on 1- son kasb hunar maktabi davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi.

Annotasiya: Oila jamiyatning quyi asosiy bo'g'inidir. U insonning hayotga kelishi, tarbiyalanishidagi asosiy makon. Oila bir necha kishilarni birgalikda yashash joyi. Oila to'liq bo'lishi uchun ota-ona va farzandlar bo'lishi shart. Ularning birortasiz ham oila bo'lishi mumkin. Lekin bunday oilada yetishmovchilik bo'ladi. Har bir oila ma'lum xonadonga mos bo'ladi.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, tarbiya, turmush, farzand, mahalla, davlat.

Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Antropologlar oilalarni matrilokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo'lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to'da-to'da bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo'lmay, to'dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so'ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo'lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo'jalikka ega bo'lmagan. Bu davrda tabiiy omil o'z vazifasini tugalladi, ya'ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi (yana qarang: Patriarxal oila, Poliandriya, Poligamiya, Poliginiya).

Ijtimoiy ishlab chiqarish — chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan erkaklar mehnatining qadri oshdi, mahsulot ishlab chiqarishda ulushi ortdi, binobarin, ularning ijtimoiy mavqei ham tubdan o'zgardi. Mavjud qoida tartiblar — farzandlarning onagagina tegishli bo'lishi, ona mulkiga merosxo'r sanalishi erkaklarning yangi mavqeiga zid kelib qoldi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi. Shunday qilib, hozirgi individual oilaning o'tmishdoshi — monogam oila vujudga kelgan.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarini singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy

yoʻnalish beradi. Oʻz farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qoʻshish bilan esa oila jamiyat yoʻnalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va maʼrifatini ham belgilashga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qoʻrgʻon hisoblanib kelingan. Xususan, oʻzbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. Oʻzbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta roʻzgʻor tutishi, farzandlarni odobli, maʼnaviy yetuk boʻlib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. oʻzbek oilalari oʻzlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlarini bilan ajralib turadi (qarang Oila tarbiyasi).

Oʻzbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim oʻrin egallaydi. Oʻzbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim boʻlgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga koʻra, oila jamiyatning asosiy boʻgʻini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada boʻlish huquqiga ega.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish boʻyicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, "Kam taʼminlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari toʻgʻrisida" 1994-yil 22-avgustda farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va maʼnaviy yordam berishning koʻlami kengaytirildi. Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan oʻrni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni "Oila yili" deb eʼlon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini taʼminlash borasidaamalga oshiriladigan tadbirlar toʻgʻrisida davlat dasturi ishlab chiqildi. Oʻzbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qoʻmitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bagʻishlangan Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan.

Har qanday davrda ham jamiyat va davlat aholi sonining bir maromda oʻsib borishi, muayyan anʼanalar va muqaddas udumlarning saqlanib, avloddan-avlodga yetkazilib turilishidan manfaatdor boʻlgan. Buyuk rus psixologi A.N.Leontev avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini oʻrganib, ilk asarlaridan birida agar shunday muloqot boʻlmaganida, taraqqiyotning oʻzi ham mutloq boʻlmas edi, deb taʼkidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim boʻlagi boʻlmish oilaning roli kattadir.¹

Demak, oila ijtimoiy institut sifatida eng avvalo tugʻilish orqali aholining maʼlum miqdorda muttasil oʻsib borishi, odamlar oʻrtasida migratsiya, yaʼni u yerdan bu yerga koʻchib turish yoki oʻlim oqibatida kamayib boradigan miqdorini toʻldirish vazifasini bajaradi. Chunki ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanish uchun mehnat resurslari va ishchi kuchining yangilanib borishidan jamiyat ham, odamlar ham manfaatdordir.

Bundan tashqari, har bir jamiyatning betakror qadriyatlarini, oʻlmas merosi, avloddan avlodga oʻtib boradigan anʼanalari boʻladi. Fuqarolik holatlari, madaniy oʻsish, maʼnaviy yuksalishga xizmat qiluvchi qadriyatlarining saqlanib kelayotganligi ham oila tufaylidir. Masalan, shunday

¹ T.Maqsudov „Oila etikasi va psixologiyasi“,T.: "Oʻqituvchi", 1991.

oilalar sulolasi borki, ular asrlar osha u yoki bu muqaddas qadriyatlarni kasb-kori, turmush tarzi orqali saqlab keladi (rassomchilik, san'atshunoslik, hunarmandchilik, gulchilik, kulolchilik, ilmiy meroslar, agrar sohada va h-zo).

Demak, oilaning jamiyat oldidagi vazifalari deganda, uning avvalo oila a'zolarining muayyan ehtiyojlarini qondirish hamda shu orqali davlat va jamiyatning ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qilish qobiliyati tushuniladi. Masalan, ota ishlab chiqarish korxonasi ertadan kechgacha mehnat qilar ekan, bu bilan u nafaqat o'zining yeb-ichish, dam olish, turli xaridlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ehtiyojini qondiradi, balki oila a'zolarini, birinchi navbatda farzandlari, uy bekasi bo'lsa, turmush o'rtog'ining ehtiyojlarini, qolaversa, u yoki bu korxonadagi rentabellikning oshishi, iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishiga, shu orqali o'z Vatanida ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Har qanday jamiyatning mustahkamligi, rivoji oilaga bog'liq. Chunki, jamiyatda bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning dastlabki elementi oilada vujudga keladi va shakllanadi. Oiladagi kattalarning bir-biri, boshqalar bilan atrof-muhit, mol-mulkka bo'lgan munosabati yoshlarning shu masalalarga munosabatini shakllanishi uchun o'rnak bo'ladi. Oiladagi tarbiyaning boshqa tarbiyalardan farqi, afzalligi tarbiya u yerda faqat o'rgatish, o'qitish, ta'kidlash bilangina emas, barcha narsalarda katta yoshdagilarni kichik yoshlar uchun o'rnak ko'rsatishi orqali olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga muvofiq, "Oila- jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" deb, ko'rsatib o'tilgan. Albatta jamiyatning paydo bo'lishida oilaning roli beqiyosdir. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Davlat doimiy ravishda oila manfaatlarini barcha jabhalarda himoya qilib, ularga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

1991 yil mustaqillikka erishganimizdan so'ng, davlat oilaviy munosabatlari sohasida tub islohotlarni amalga oshirila boshladi. Jumladan, 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti farmoni bilan tashkil qilingan "Mahalla xayriya jamgarmasi" kam ta'minlangan oilalarga, boquvchisini yo'qotgan shaxslarga moddiy jihatdan katta yordam ko'rsatdi va ularga keng shart-sharoitlar yaratdi. 1993 yil 4-martda birinchi Prezidentimiz farmoni bilan "Sog'lom avlod uchun" ordeni tashkil etildi. Bu orden onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodning salomatlini saqlash hamda yoshlarni vatan tuyg'usida tarbiyalash ishlarida o'zining xizmatlari bilan tanilgan shaxslarga berildi.²

O'zbekistonda yosh oilalarga ko'rsatilayotgan muruvvatlar, bola tug'ilishi va katta bo'lishi uchun suyunchi puli, nafaqalarning belgilanishi, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofaza qilinayotganligi, ota yoki ona farzand oldida o'z burchini bajarmagan taqdirda moddiy, ma'naviy, hatto, jinoiy sanksiyalar orqali jazolanishi ushbu noyob maskanni mustahkamlash, u orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni keyingi avlodlar uchun saqlash vazifasini bardavom etishdan iboratdir. Tahlil etiladigan bo'lsa, odamlar o'rtasida ro'y beradigan ko'plab munosabatlar orasida faqat oilaviy munosabatlarga davlat tomonidan shunchalik ardoqlanadi, masalan, sevgi-muhabbat, do'st-yoronlik, odamlar urtasidagi oldi-sotti, tadbirkorlik, mehnat munosabatlariga davlat deyarli aralashmaydi.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning

² .U. Alimov, " Oilada farzand tarbiyasi", T., " Movarounnahr", 2017.

farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va faqat oiladagi boshqa a'zolarning hamda o'zga fuqarolarning axloqi, sha'ni, qadrqimmatini, sog'lig'i, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur me'yordagina cheklanishi mumkin.

Dunyoda hamma narsa juft-juft yaratilgan: oy va quyosh, kecha va kunduz, yer va osmon, erkak va ayol, musbat va manfiy va hokazo. Mavjudotlar hayotda mana shu juftlik bilangina barqaror bo'ladilar. Ushbu juftlikni inson misolida oladigan bo'lsak, er kishi turmushda faqat o'z jinsining jufti bo'lgan ayoli bilan taskin va rohat topishi mumkin. Yolg'iz holda o'z saodatini his qila olmaydi. Taqdir qilgan hayoti juftisiz barqaror bo'lmaydi. Ana shunday juftlik sanalgan erkak va ayolning ilohiy nikoh rishtalari tufayli bir xonadonda, bir oilada ahl - totuv yashashlari, nasl davomiyligini ta'minlab, umrguzaronlik qilishlari haqiqatan ajoyib hikmatga dalolatdir. Inson oilada tug'ilib, ulg'ayadi, shaxs sifatida shakllanadi, mehnat jamoasida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat, " Oila", T., " Ma'naviyat", 2000.
2. Ta'lim-tarbiya uzluksizligi va uzviyligida integratsiya yondashuvlar variativligi. Ilmiy-uslubiy maqolalar toplami. -Toshkent, "Noshirlik yodgusi" , 2019.
3. T.Maqsudov , " Oila etikasi va psixologiyasi", T.: " O'qituvchi", 1991.
4. U.Alimov , " Oilada farzand tarbiyasi", T., " Movarounnahr", 2017.
5. Sh.Saytdjanov , B.A. Mirsalixov, " Tarbiya - inson hayotida muhim omilidir". Talaba - yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammolari (Respublika ilmiy - amaliy anjuman materiallari) 24-25 noyabr, 2018.